



MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA EKSPORTNING ROLI

Sobirova Muxlisa

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0003-6846-774X
sobirovamuhlisa80@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada raqobat va eksport tushunchasi, ularning bir-biriga o'zaro bog'liqligi muhokama qilinadi. Iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda unga ta'sir etuvchi omillar hamda uning mamlakat milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni, eksport samaradorligining raqobatga ta'siri hamda raqobatning amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Maqolada iqtisodiyotda raqobat va eksport tizimining bir-biriga bog'liq jihatlarini nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: eksport, milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, tashqi savdo, eksport salohiyati, iqtisodiy diversifikatsiya, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, eksportni rag'batlantirish, innovatsiyalar, institutsional mexanizmlar, xalqaro bozorlarga integratsiya, eksport tarkibi, makroiqtisodiy barqarorlik.

РОЛЬ ЭКСПОРТА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

Собирова Мухлиса

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются понятия конкуренции и экспорта, их взаимосвязь. Рассматриваются факторы, влияющие на экономическую конкурентоспособность и её роль в национальной экономике страны, влияние эффективности экспорта на конкуренцию, а также практические и теоретические аспекты конкуренции. В статье на основе теоретических подходов исследуются взаимосвязанные аспекты конкуренции и экспортной системы в экономике.

Ключевые слова: экспорт, национальная экономика, конкурентоспособность, внешняя торговля, экспортный потенциал, экономическая диверсификация, продукция с высокой добавленной стоимостью, малый бизнес и частное предпринимательство, содействие экспорту, инновации, институциональные механизмы, интеграция в международные рынки, структура экспорта, макроэкономическая стабильность.

THE ROLE OF EXPORT IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE COUNTRY'S ECONOMY

Sobirova Mukhlisa

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. This scientific article discusses the concepts of competition and export, their interdependence. The factors influencing economic competitiveness and its role in the national economy of the country, the impact of export efficiency on competition, and the practical and theoretical aspects of competition are considered. The article studies the interrelated aspects of competition and the export system in the economy based on theoretical approaches.

Keywords: export, national economy, competitiveness, foreign trade, export potential, economic diversification, high value-added products, small business and private entrepreneurship, export promotion, innovation, institutional mechanisms, integration into international markets, export structure, macroeconomic stability.

Kirish.

Globalizatsiya jarayonining chuqurlashuvi, xalqaro savdo hajmining kengayishi hamda davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishda eksport faoliyatining ahamiyatini yanada yuksaltirmoqda. Eksport nafaqat valyuta tushumlari manbayi, balki iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish modernizatsiyasi, texnologik yangilanish va yangi ish o'rinlari yaratilishi uchun ham muhim omildir. Shuning uchun ham ko'plab davlatlar eksportni rivojlantirishni milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Eksport – bu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni tashqi bozorlarga sotish jarayonidir. Iqtisodiy nazariya eksportni milliy ishlab chiqarishning tashqi talabga yo'naltirilgan qismi sifatida ko'radi. Eksport hajmining o'sishi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, texnologik yangilanishni rag'batlantirish, eksportchi korxonalarning raqobatga moslashuvi, xalqaro maydonda brend va sifat standartlarining shakllanishi kabi muhim jarayonlarga xizmat qiladi. Raqobatbardoshlik – bu mamlakat, tarmoq yoki korxonaning ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishi, samarali qiymat yaratishi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlay olishi demakdir. Milliy raqobatbardoshlik asosan mehnat unumdorligi, texnologik rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish tannarxi, logistika va infratuzilma, eksport salohiyati kabi omillar bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda eksport va raqobatbardoshlik masalalari bo'yicha nazariy va empirik adabiyotlar keskin kengayib bormoqda. Eksport orqali mamlakatlar valyuta tushumlarini oshirib, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va texnologik almashinuvni rag'batlantirish orqali milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiradi — bu fikrni eksportga asoslangan rivojlanish (export-led growth) nazariyasi qo'llab-quvvatlaydi. (Judith Giles, Cara Williams, 2000)

Export-led growth (ELG) nazariyasi: ELG gipotezasi bo'yicha eksport hajmining kengayishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, chunki tashqi talab ichki ishlab chiqarishni kengaytiradi, samaradorlikni oshiradi va texnologik transferi rag'batlantiradi. So'nggi umumiy tadqiqotlar ELG dalillarini mamlakat va davr bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi – ba'zi mamlakatlarda kuchli sabab-natija aloqasi aniqlanadi, boshqalarida esa natijalar noaniq qolmoqda.

Porter (1990) mamlakat raqobatbardoshligini faqat faktorlarga bog'liq emas, balki davlat va korxonalar tomonidan yaratiladigan dinamik afzalliklar orqali shakllanishini

ta'kidlaydi (diamond framework). Eksport strategiyalari milliy "diamond" elementlarini — firmalar strategiyasi, talab sharoiti, tegishli sanoat va hukumat siyosatlarini — yaxshilash orqali raqobatbardoshlikni oshiradi degan fikrni ilgari suradi.

Janubiy Koreya va Xitoy misollari eksport va sanoat siyosati orqali yuqori texnologiyali va yuqori qiymatli mahsulotlarga o'tish orqali raqobatbardoshlikni oshirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksportni qo'llab-quvvatlashda innovatsiyalar, Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit va brend-marketing muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda eksport va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi uzoq muddatli bog'liqlikni aniqlash maqsadida ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli va Bounds kointegratsiya testi qo'llanildi. Ushbu yondashuv o'zgaruvchilarning integratsiya darajalari turlicha bo'lgan sharoitda ham samarali hisoblanadi. So'nggi metaanalizlar va ARDL/cointegration tadqiqotlari eksport-o'sish munosabatini qayta baholamoqda: natijalar mamlakat xususiyatlariga (resursboylik, siyosat, bozor o'lchami) bog'liq. Shu sababli siyosat tavsiyalari har doim kontekstga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Porterning fikriga ko'ra, Eksport bozorlari talablari raqobatni kuchaytiradi, kompaniyalarni sifat va innovatsiyalarni joriy etishga majbur qiladi — natijada milliy texnologik daraja ko'tariladi.

Williams va boshqalar (1999) ning fikricha, xalqaro bozorlar imkoniyati bilan ishlab chiqarish hajmi oshadi va bir birlikka tushadigan xarajatlar kamayadi, bu esa narx raqobatbardoshligini oshiradi.

Birlashgan millatlar tashkilotining "Trade and Development 2022" hisobotiga ko'ra, Eksport strukturasi kengaytirish — xom-ashyo eksportidan ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatlarga o'tish — iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi. UNCTAD va boshqa tashkilotlar diversifikatsiyaga oid siyosatlarni tavsiya qiladi.

Jahon banki O'zbekistonning makrobarqarorlik va tashqi moliyaviy pozitsiyasini ta'minlashda eksport valyuta tushumlarini oshirib, valyuta rezervlarini mustahkamlaydi va makrosiyosatni qo'llab-quvvatlash uchun imkon yaratadi deya ta'kidlaydi.

O'zbekiston hukumati ham eksportga yo'naltirilgan strategiyalarni (2022–2026 strategiyasi va keyingi maqsadlar) faol ilgari surmoqda — xususan, eksport hajmini oshirish, eksportchi korxonalar sonini ko'paytirish va tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga doir reja mavjud. Bu strategiyalar eksport diversifikatsiyasi va chakana tarmoqni qo'llab-quvvatlashga urg'u beradi. Statistik manbalardan shuni anglash mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekiston eksportida diversifikatsiya (mahalliy qayta ishlangan mahsulot va logistika yo'nalishlari) kuzatilmoqda; rasmiy statistika eksport hajmidagi o'sish va tovarlar tuzilishidagi o'zgarishlarga oid ma'lumot beradi. Tadqiqotlar milliy eksport siyosatining samaradorligini oshirish uchun infratuzilma va korxona darajasidagi qo'llab-quvvatlashni tavsiya qiladi.

Mahalliy olimlar masalan, Sultanova va boshqalar (2023) O'zbekiston eksportining 2010–2023 davridagi dinamikasi va diversifikatsiyasini tahlil qilib, eksportni kengaytirish uchun sanoat kooperatsiyasi, sifat nazorati va xalqaro bozorga kirish strategiyalarini taklif qilmoqda.

Dilmurod Oripov (2024) ning tadqiqotida O'zbekiston kichik biznesining xalqaro bozorlar istiqbollari, eksport salohiyatini oshirish va milliy raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari o'rganiladi. Muallif innovatsiya, bozorlar diversifikatsiyasi va davlat siyosatining qo'llab-quvvatlashi eksportchi korxonalar salohiyatini kuchaytiruvchi muhim omillar ekanini ta'kidlaydi. Oripov hisobicha, eksportni kuchaytirish faqat tovar hajmini oshirmaydi, balki mahalliy kichik biznes subyektlarining xalqaro raqobatga moslashuvini ham rag'batlantiradi, bu esa milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiradi.

Bakhodir Yunusov (2020) o'z tadqiqotida O'zbekistonning oziq-ovqat eksporti raqobatbardoshligini Balassa indeksi va Porter modeli orqali baholaydi. U logistika infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro sertifikatlash tizimini takomillashtirish va mahsulotlarni chuqur qayta ishlashni eksport raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim strategiyalar deb

biladi. Yunusov tahliliga ko'ra, mahalliy eksport salohiyati xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topish uchun mahsulotlar qiymatini oshirish va standartlarga mos keladigan eksport tizimini shakllantirish zarur.

Kodirjon Umarkulov (2025) ning maqolasi eksportni rag'batlantirish bo'yicha davlatning institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qiladi, xususan kichik biznesning eksport salohiyatidan foydalanish, xalqaro standartlarga moslashish va moliyalashtirish masalalarini o'rganadi. markulovning ta'kidlashicha, eksportni moliyalashtirish, bojxona va soliq imtiyozlari, xalqaro standartlarga moslashtirish negativ to'siqlarni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiruvchi samarali mexanizmlar bo'lib xizmat qiladi.

Eshmurod Raximov (2025) ning tadqiqoti eksport tarkibini yuqori qo'shimcha qiymatli tovarlar tomon o'zgartirish iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishi ustida qurilgan. Muallif regresiya modeli asosida yuqori qo'shimcha qiymatli eksportning yalpi ichki mahsulotga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, milliy raqobatbardoshlikni oshirish uchun texnologik modernizatsiya va infratuzilmani takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Raximov fikricha, eksportni diversifikatsiya qilish hamda yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda asosiy omillardandir.

Jasmina Olimova (2025) ning maqolasi O'zbekistonning tashqi savdo strategiyasini chuqur tahlil qiladi. Muallif eksportni kengaytirish, bozorlar bilan integratsiya, iqtisodiy diversifikatsiya va investitsiya jalb qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategik yondoshuvlarni taklif etadi. Olimovaning fikricha, xalqaro savdo ittifoqlariga a'zo bo'lish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va eksport logistikasi samaradorligini oshirish O'zbekiston eksport salohiyatini kuchaytiradigan asosiy yo'nalishlardir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, deduksiya, induksiya, monografik kuzatuv, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida eksportning tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash, shuningdek, eksport ko'rsatkichlari bilan asosiy makroiqtisodiy indikatorlar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqliklarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot davomida eksport hajmi, uning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar o'rganildi.

Tadqiqotda **kompleks yondashuv** qo'llanilib, unda nazariy va empirik tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Nazariy qismda eksportning iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikka ta'siri bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Empirik qismda esa mamlakat miqyosidagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilindi. Empirik tahlil uchun foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy va ishonchli manbalardan shakllantirildi. Jumladan, milliy statistika organlari tomonidan e'lon qilingan yillik statistik to'plamlar, tashqi savdo hisobotlari hamda hukumat va tegishli vazirliklarning ochiq ma'lumotlari asos qilib olindi. Tadqiqotda vaqt qatorlari shaklidagi ma'lumotlardan foydalanilib, ular eksport hajmi, yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur bo'limda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksportning tutgan o'rni empirik jihatdan baholandi. Tadqiqot doirasida eksport ko'rsatkichlari hamda asosiy makroiqtisodiy indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlik vaqt qatorlari asosida tahlil qilindi. Empirik tahlilning asosiy maqsadi eksport hajmining iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlik jarayonlariga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Dastlab, tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilar bo'yicha tavsifiy statistik tahlil

o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilingan davr mobaynida eksport hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu mamlakatning tashqi savdo faoliyati faollashganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot va sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarida ham ijobiy dinamik o'sish kuzatildi. Eksport tarkibidagi o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda tayyor va qayta ishlangan mahsulotlar ulushi ortib borgan, bu esa milliy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatning oshishiga va raqobatbardoshlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Eksport va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ARDL modeli baholandi. Model natijalariga ko'ra, eksport hajmi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham qisqa, ham uzoq muddatda ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Qisqa muddatli natijalar eksportdagi o'zgarishlar iqtisodiy faollik darajasiga tezkor ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari orqali iqtisodiy muhitni faollashtirishini ko'rsatdi. Eksport hajmining oshishi ishlab chiqarish quvvatlaridan samaraliroq foydalanish va korxonalar faoliyatining kengayishiga olib keladi. Uzoq muddatli baholash natijalari esa eksportning iqtisodiy raqobatbardoshlikka sezilarli va barqaror ta'sirini tasdiqladi. Xususan, eksport hajmining oshishi yalpi ichki mahsulotning o'sishiga, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuviga hamda tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar mavqeining mustahkamlanishiga xizmat qilishi aniqlangan. Olingan empirik natijalar nazariy qarashlar va ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, texnologik yangilanishni tezlashtiradi va milliy korxonalarni xalqaro raqobatga tayyorlaydi. Shuningdek, eksportning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi raqobatbardoshlikning muhim omillaridan biri ekanligi tasdiqlandi. Xom-ashyo eksportidan tayyor mahsulot va xizmatlar eksportiga o'tish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda tashqi shoklarga nisbatan chidamlilikni oshiradi.

1-jadval

2014-2024 yillarda eksport va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tavsifiy statistikasi (O'zbekiston Respublikasi misolida)

N ^o	Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Eng kichik qiymat	Eng katta qiymat	Standart og'ish
1	Eksport hajmi (mlrd AQSh dollari)	18,6	12,4 (2014)	27,0 (2024)	4,8
2	Yalpi ichki mahsulot (YaIM), mlrd AQSh dollari	96,2	80,8 (2014)	101,6 (2024)	10,8
3	Sanoat ishlab chiqarishi indeksi (%)	104,5	101,8 (2015)	106 (2023)	2
4	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd AQSh dollari)	46,7	28,3 (2014)	65,9 (2024)	11,2
5	Tayyor mahsulotlar eksporti ulush (%)	≈ 12,4	~8-10 % (2014)	~15,6-15,9 (2024)	≈ 3,4 %

Manba: statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2014-2024 yillar davomida mamlakat iqtisodiyotining asosiy makroko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Eksport hajmi 2014-yildagi 12,4 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 27,0 mlrd AQSh dollarigacha oshdi. Yalpi ichki mahsulot 80,8 mlrd AQSh dollaridan 114,9 mlrd AQSh dollarigacha o'sdi. Sanoat ishlab chiqarish indeksi 2015-yilda 101,8 %, 2023-yilda 106 %, 2024-yilda 106,8-106,9 % bo'lib, sanoat sektorining barqaror o'sishini ko'rsatadi. Tashqi savdo aylanmasi 28,3 mlrd AQSh dollaridan 65,9 mlrd AQSh dollarigacha oshdi. Tayyor mahsulotlar eksporti ulushi 28,1 % dan 45,7 % gacha o'sib,

eksport tarkibida qo'shilgan qiymatning ortishini va milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashini namoyon qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mazkur ilmiy tadqiqot mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksportning tutgan o'rnini va ahamiyatini kompleks tarzda tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eksport hajmining oshishi va uning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda xalqaro bozorlarda mamlakat pozitsiyalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Empirik tahlil natijalariga ko'ra, eksport ko'rsatkichlari bilan yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarish indeksi va tashqi savdo aylanmasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, tayyor va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar eksporti ulushining oshishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi tasdiqlandi. Bu holat eksportning faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, mahalliy olimlar tadqiqotlari tahlili eksportni rivojlantirishda institutsional mexanizmlar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Umuman olganda, eksportni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning ochiqligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksportning rolini kuchaytirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- eksport tarkibini diversifikatsiya qilishni jadallashtirish, xususan xomashyo eksportidan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tishni rag'batlantirish zarur;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida moliyaviy, institutsional va axborot-maslahat mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali eksport mahsulotlarining sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish zarur;
- eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, jumladan eksport kreditlari, sug'urta va kafolat tizimlarini rivojlantirish orqali eksportchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq;
- logistika va transport infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish orqali eksport operatsiyalarining xarajatlarini kamaytirish tavsiya etiladi;
- tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish va yangi eksport yo'nalishlarini o'zlashtirish, mintaqaviy va global savdo integratsiyasini chuqurlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Judith A. Giles, Cara L. (2000) Williams "Export-led growth: a survey of the empirical literature and some non-causality results" January 2000 *Journal of International Trade and Economic Development* 9(3):261-337 DOI:10.1080/09638190050086177

Olimova, J. G. (2025). Developing Uzbekistan's foreign trade strategy: Export expansion and economic diversification. *Web of Journals*, 12(3), 101-115. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/5527>

Oripov, D. (2024). Globalizing Uzbekistan's small businesses: Export potential and competitiveness. *European Science Journal*, 17(12), 45-58. <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/667>

Porter C. (1990) *The Competitive Advantage of Nations*, Harvard Business Review/Free Press.

Raximov, E. (2025). Improving the strategy for transforming Uzbekistan's export structure towards high value-added products. *Journal of Green Economy Development*, 5(2), 33-47. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7223>

Umarkulov, K. (2025). The role of institutional and financial mechanisms in promoting export activities in Uzbekistan. *Journal of Green Economy Development*, 4(3), 55-69. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/5935>

www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy web sayti.

www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi rasmiy sayti.

www.uzstat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.

Yunusov, B. M. (2020). Assessment of the competitiveness of food exports in Uzbekistan: Porter and Balassa index analysis. *International Journal of Economics and Research*, 8(4), 77-90. <https://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/659>